

## “QIYOFAT-UL BASHAR” HAQIDA MA’LUMOT

*Qorako'l Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi psixolog'i*

**Hasanova Mehriniso Axmatovna**

**“QIYOFAT-UL BASHAR” HAQIDA**

*Xamirturish asli achigan xamir*

*Uningsiz xush bo`lmas non ila patir*

*Ayniqsa, lek odam “xamirturishi”*

*Ziyoni bir necha avlodga yetar*

Qiyofa ilmi -inson qiyofasiga ko'ra xulq atvorini taxmin qilish qiyofa yoki farosat ilmi kishining ichki dunyosi bilan tashqi ko'rinishi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgatuvchi ilmdir. Unga tananing ko'rinishi, xususan, yuz chiziqlari yordamida kishining o'zini kashf etishi, deb qarash mumkin. Bizning ruhiy holatimiz vujud va yuzimizda aks etishini sezish qiyin emas. Kiyim -kechak tanamizni berkitgani kabi inson ruhiga kiydirilgan badan ham kishi aslini berkitib turadi. Ammo insonning ruhiy olamida sodir bo'layotgan jarayonlar, masalan g'azablanish, shodlik, g'am-qayg'u, qo'rquv va hokazolar insonning yuz ko'rinishida ham ask etadi. Inson ruhiyatiga yashiringan jilvalarni o'rganish asosida qiyofa ilmi shakllangan.

Ota-bobolarimiz asrlar osha odamlarning fc'lu atvorlarini o'rganganlar. goh yutib, goh aldanganlar, kishilarnmg gavda tuzilishlariga qarab, bundan xulosa chiqarganlar. Bu xulosalar oqibat-natijada dono hakimlar tomonidan yig'ilib, kitob shakiiga kelgan. Bu kitob esa "Qiyofat-ul bashar" (Odamzot qiyofasi). "Ilmi qiyofa" ("Qiyofadan aniqlash") va " Ilmi farosat" (Farosat bilan bilish ilmi") deb atalgan. Asrlar osha qo'ldan-qo'lga o'tib, avval qo'lyozma so'ng bosma holda arab, fors va o'zbek tillarida keng tarqalgan. Sizga tavsiya qilinayotgani Mahmud Hasaniy tomonidan nashrga tayyorlangan bo'lib, mazkur olim kirish so zida kitobni o'qishda nimaga e'tibor berish kerakligini yozgan. Eski o'zbek tilidagi mazkur kitob birinchi marta 1908 yilda toshkentda nashr qilingan. Nashr haqida, unig tayyorlaovchisi haqida ma'lumot yo`q. Kitob haqidagi ma'lumotni uning 1909 yilda Kogonda qayta chjop etilgan nusxasidan bilish mumkin.

M. Hasaniy yozadi: "U bizga o'tmishdan qolgan yodgorlik, unda aytilgan narsalar yuz foiz to'g'ri, deb hech kim kafolat berolmaydi. Ammo unda aytilgan ko'pgina nishonalar haqiqat bolib, buni inkor etish ham qiyin. Uning asrlardan- asrlarga o'tib xalq orasida o'qilishi ham unda qandaydir haqiqat borligini bildiradi...". Kishilarning shakli va rasmiga qarab hukm chiqarish hozirgi paytda davlat xavtsizligida, kriminalistikada, ba'zi vrachlar va ekstrosenslar tomonidan diagnoz qo'yishda ham qollanib kelinmoqda. Ovrupoda ham bu fan qadimdan to shu kunlargacha fizionomika nomi bilan davom etib kelayapti."

Motabar faylasuflar va donishmand hakimlar odamzodning barcha a'zolari kishining yaxshi xulqlari yoki yomon sifatlarini bildiruvchi vositalardir, deb ta'yin qilganlar. Odamning tashqi tomonidan ko'riniib turgan har qanday a'zosi ichki olamidagi yaxshi va yomon tomonlariga dalil bolishini tajribadan o'tkazganlar. Quyida asardan namuna sifatida olingan ayrim inson tana a`zolari haqidagi fikrlardan voqif bo`lamiz.



## INSON TANA A'ZOLARINING ALOMATLARI

Boshning alomatlari:

Har kimning boshi katta, to'rtburchakli va tep-tekis bolsa, sochlari qalin va qattiq bolsa, uning aql sohibi, fahmu-farosatli va himmatli sahovatligidan dalolatdir.

Agar kimning boshi kichkina, cho'ziq, sochlari kam va siyrak bolsa, bu uning axmoq, nodon, zehni past, gumrohu betamiz ekanligidan dalolatdir.

Peshana alomatlari:

Har kimning peshanasi keng va chiziqlarsiz, tekis bo'lsa, boshqa nishonalari bo masa, bu kishining ginachi, badnafs, yolg'onchi, aldoqchi, kibru havoli ekanini namoyon etadi. Har kimning peshanasi o'rtacha bolib, o'rtasida chiziq va yollari bolsa, u kishining rostgo'y, sadoqatli do'st, aqli va tadbirkor, baxt-u davlatli ekanidan dalolatdir. Har kimning peshanasi tor bolsa, u kishining behayo va nodon, qo'rqoq, faolokatli va kasofath bolishi shubhasiz.

Har kimning peshanasida bosh tomondan quyiga qarab bir chiziq tortilgan bo'lsa. Bu odamning jahli tez, urushqoq va doim xafa ekanligidan dalolatdir. Peshanadagi chiziqlarning har bir o'n yillik umrga dalolat qiladi, chunonchi, chiziq bitta bo'lsa o'n, 2 ta bo'lsa yigirma yoshga va hokazo yoshga kiradi.

Qoshning alomatlari:

Kimning qoshi qalin, uzun va mo'ylari ko'p bo'lsa, u kishining takabbur, johil va o'zbilarmonligidan dalolatdir. Kimning qoshi bir-biriga tutash bo'lsa, bunday kishi ulfat va mehribon bo'ladi. Agar bu sifat erkak kishida bo'lsa, bunday еркак оз хотини yaxshi ko'radigan, ayolda esa bunday jinsiy suhbatni yaxshi ko'radigan bo'ladi. Har kimning qoshi uzun va qisqalikda hamda qoralikda o'rtacha bo'lsa, bunday kishi urushqoq va fitnachi ekanidan dalolat. Agar qoshlari baland bolsa, aqli kam, o zi takabbur bo'ladi. Agar qoshning mo'ylari uzun bolsa, bu mazkur kishining himmatli, shijoatli, ayni paytda achchig'i tez va urushqoq bo'lishidan dalolatdir.

Ko'zning alomatlari:

Kimning ko'zi katta va qora bo'lsa, bunday kishi sust va beg'ayrat bo'ladi. Ko'zlar kichik bo'lsa, yengil va fahmi kam bo'ladi. Katta-kichiklikda o'rtacha bo'lsa, xayoli va vafoli bo'ladi. Kimning ko'zi chuqur bo'lsa, bu o'sha kishining takabbur, fosiq, o'zgalarning moli va haqidan qo'rqlaydigan, yuragi egri bo'lishidan dalolatdir. Agar kishining ko'zi irg'ib chiqqan bo'lsa, bunday kishi behayo va baxil bo'ladi. Kimki ko'zini tez-tez ochib-yumib tursa, bunday kishi aldoqchi va o'g'ri bo'ladi. Kimning ko'zi katta, qizil, illati yo'q, beg'ubor bo'lsa, uning umri uzun va o'zi polvon bo'lishidan dalolat beradi. Biroq chaqir ko'zli kishi, baxil, behayo va himmatsiz bo'ladi. Har kimning ko'zi kichik va ko'k bo'lsa, bunday kishi hiylagar, aldoqchi, shaxvatparast, jinsiy aloqaga ishtiyoqmand bo'ladi. Agar ko'zi mushukning ko'ziga o'xshab yumaloq bo'lsa, bu mazkur kishining saodatlari va shodmon bo'lishidan dalolatdir. Ko'zning katta va kichiklikda, qora va qizillikda o'rtacha bo'lishi kishining yaxshi xulqli, yaxshi odatlari bo'lishini bildiradi. Har kimning ko'zi oqida qizil tomirlar bo'lsa bunday kishi shahvatparast bo'ladi.

Qulquning alomatlari:

Kimning qulog'i katta bo'lsa, bunday odam yaxshi kishi bo'lib, eshitgan narsasini esdan chiqarmaydigan, umri uzun, ba'zan achchig'i chiqib turadigan bo'ladi. Kimning qulog i kichkina bo'lsa, nodon va johil bo'ladi. Ammo qulogi o'rtacha kishi aqlu farosatli va saodatmand bo ladi. Har kimning qulog'i ostidagi yumshog'i sergo'sht bolsa, badavlat bo'ladi.

#### Burunning alomatlari

Har kimning burni ingichka bo'lsa, bunday kishi engiltak va kam aql bo'ladi. Har kimninmg burni yalpaygan va teshiklar katta bo'lsa, bunday kishi sershaxvat va achchig'I tez bo'ladi. Kimning burni egri bo'lsa, ikkiyuzlamachi va gunoh yo`liga yuradigan bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar namuna sifatida berildi.Insonning kimligini, uning f'el – atvorini qiyofasiga qarab aniqlashga intilish hamma xalqlarda uchraydi. Mazkur Qiyofat ul bashar asari ham bu borada qadimiy sharqda to`plangan tajribalar, kuzatish natijalari umumlashtirilgan bo'lib, ular ko`pchilikka manzur bo'ladi degan umiddaman.

#### ADABIYOTLAR:

- 1.Qiyogat ul bashar asari
2. Quyofat ul bashar: ( Qiyofaga qarab aniqlash) -T.: G`ofur G`ulom nomidagi Nashriyot matbaa birlashmasi, 1991.
3. Qiyofadan o`qish san`ati . P. Xudoyberdiyev. 2022 yil.  
Fiziognomika.